

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «18» 8-oy

310-13-182-OB/2022-son

Beruniy tuman.

Bundan buyon **“BUYURTMACHI”** deb ataluvchi **Beruniy tumani obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi boshqarma boshlig'i **D.Abdullayev** bir tomondan va bundan buyon **“PUDRATCHI”** deb ataluvchi **«Urganch Murodjon Servis» MChJ** nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi korxona rahbari **B.Aniyazov** ikkinchi tarafdin mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1.SHARTNOMANING PREDMETI

1.1.Ushbu shartnoma buyicha «Pudratchi» «Buyurtmachi»ning buyurtmasiga asosan Beruniy tumani Beruniy tumani «Palvash» MFY piyodalar yulakchasini joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmlariga oladilar.

1.2.Ushbu shartnomaning umumiy summasi 162 000 000 (bir yuz oltmish ikki million) so'mni tashkil etadi.

2. TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH, BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

2.1. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi « 20 » avgust 2022 yil.

2.2. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti « 30 » sentabr 2022 yil.

2.3. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.2. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

3.1.Ushbu shartnomaning umumiy narxi 162 000 000 (bir yuz oltmish ikki million) so'mni tashkil etadi. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma narxining 30 % yoki 48 600 000 (qirq sakkiz million olti yuz ming) so'm miqdorda oldindan to'laydi va bu oldindan to'lov 2022 yilning avgust oyida amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» tomonidan joriy to'lovlar «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so'ng amalga oshiriladi.

3.2.«Buyurtmachi» to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.

3.3.«Pudrat» tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshikcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

4. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1.Pudratchi:

Shartnoma bahosi 162 000 000 (bir yuz oltmish ikki million) so'm bo'lgan ko'rsatiladigan xizmatlarni yuqorida kelishilgan muddatda tugatish va foydalanishga topshirish.

4.2. Agar ta'mirlash ishlari mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda buyurtmachiga quyidagi tartibda jarima to'laydi:

- Ta'mirlash ishlarining muddatlari kechiktirib yuborilgan xolatda pudratchi buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,4

foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash

shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ta'mirlash ishlarini bajarish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq bajarmaslik, oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.3. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofik ta'mirlash ishlarni belgilangan muddatda sifatli va tulik xajmda, dalolatnoma asosida topshiradi.

4.4. Buyurtmachi:

Shartnomada kursatilgan 3.1. bandi buzilsa, ta'mirlash ishlarining haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.5. «Buyurtmachi» ko'rsatiladigan xizmatlarni o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita xo'jalik sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar xo'jalik sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar natijasida vujudga qelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

6.2 Engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

6.3 Shartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu holatlar harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

6.4. Shartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

7.1. Ushu shartnomaning harbir tamoni o'ziga nisbatan qollanilgan barcha, shu jumladan O'zbekstan Respublikasi amaldagi qonunchiligi va normativ hujjatlari Korruptsiyaga qarshi shartlar va tegishli talablarni tushinishini ishontiradi va ularni amalga oshirishni kafolatlaydi.

7.2. Taraflar ushbu shartnoma amalda bolgan butun davr mobaynida Korrupsiyaga qarshi shartlar va tegishli talablarin bajarish majburiyatini oladi.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil "31" Dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Shartnoma taraflarning xabarnomasiga ko'ra, qo'shimcha kelishuvsiz bekor qilinishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

9.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

10. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLAR

PUDRATChI:

"Urganch Murodjon Servis" MChJ

Manzili: Urganch shahar 6-daxa 18/2 uy 18 xona
Tel: 93-754-66-63
Hisob raqami: 20208000100665011001
INN: 304 312 375
Bank: HAMKORBANK ATB Urganch filiali
MFO: 01020

BUYURTMACHi:

Beruniy tuman Obodonlashtirish boshkarmasi

Manzili: Kat kuchasi rakamsiz uy
Tel: faks: 97-505-14-30
Sh.h.r: 301821860352077065200110001
INN: 204710460
OKONX:
Moliya Vazirligi G'aznachiligi
G'azna xisob varag'i :
23402000300100001010
Bank : Markaziy bank Toshkent sh XKKM
MFO : 00014 INN: 201122919

Raxbar



B. Aniyazov



Raxbar



D. Abdullaev



Tayyorladi: Bosh xisobchi U. Yusupov



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyi haning turi: Shartnoma.

2. Loyi haning nomi va mazmuni: Beruniy tumani Obodonlashtirish boshqarmasi raxbari D.Abdullayev va Urganch Murodjon Servis MChJ raxbari B.Aniyazov bilan 162 000 000 so'mlik Beruniy tumani Palvash MFY piyodalar yo'lakchasini joriy ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha shartnoma tuzish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: XD32516520
Beruniy tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 16 avgust.

4. Xulosa: Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-son qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat Xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son qonuni hamda amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq

**Beruniy tumani yuridik
xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsult:**

2022 yil «17» avgust



Sh.Qadirov

Товар материал захираларини ҳамда ишларини (хизматларини) сотиб олиш бўйича энг яхши
таклифларни танлаб олиш бўйича ўтказилган комиссиянинг 4-сонли мажлиси
БАЁННОМАСИ

Беруний тумани

“18” Август 2022 йил

Комиссия раиси:
Комиссия аъзолари:

Ш.Бабаниязов
Ш.Юлдашев
У.Юсупов
К.Карлиев
Х.Аширбаев
А.Саимов

КУН ТАРТИБИДА

Танлов комиссиясига котиби танлов комиссиясига куйидаги маълумотларни берди:

Ушбу энг яхши таклифни танлаб олиш ободонлаштириш бошқармаси бюджет маблағлари ҳисобидан Беруний тумани Палваш мфй пиёдалар йулакчасини жорий таъмирлаш ишларини амалга ошириш режалаштирилган.

Ўзбекистон Республикаси 2021-йил 22-апрелдаги 684-сонли “Давлат харидлари тўғрисида”ги Низомнинг (Кейинги ўринларда-Низом) 58-моддасига мувофиқ энг яхши таклифни танлаб олиш ўтказилиши ҳақидаги порталида (<http://dxarid.uzex.uz>) эълон танлов катнашувчиларининг қабул қилиш муддати якунида 5 (беш) иш куни олдин давлат буюртмаси томонидан шахсий кабинет орқали 2022-йил 03-август куни №22110012133469-сонли Лот бўйича ва 2022 йил 15 август кунги №133469 сонли баённома бўйича ҳеч қандай эътироз келиб тушмади.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонун талабларига ва юқорида курсатилган маълумотларни ҳисобга олиб танлов комиссияси

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Беруний тумани Палваш мфй пиёдалар йулакчасини жорий таъмирлаш ишларини амалга ошириш бўйича ўтказилган танлов ҳужжатларидан ҳамда танлов шартлари бўйича энг яхши таклифларни таклиф қилган ва танлов ҳолиби деб “Урганч Муроджон сервис” мчж 162 000 000 (бир юз олти миш икки миллион) сум (ҚҚС солиғи билан бирга) топилсин ва шартнома тузилсин.

2. Танлов ҳолиби танлов шартлари асосида шартнома тузишдан бош тортган тақдирда шартнома тузиш ҳуқуқи кейинги катнашувчи (резерв) қилиб “Хива саёт тайёрлов” белгилансин. Бунда ҳолиб катнашувчи таклиф қилган суммасидан ошмаган миқдорда шартнома тузиш мумкинлиги белгилаб қуйилсин.

3. Низом талабларига мувофиқ танлов катнашчиларнинг таклифларни кўриб чиқиш ҳам баҳолаш муддати таклифлар бериш куни тугашидан 10 (ўн) иш кунидан ошиб кетиши мумкин эмаслиги маълумот учун қабул қилинсин.

4. Ободонлаштириш бошқармаси бош ҳисобчиси У.Юсупов танлов якуни бўйича ҳолиб билан шартнома ҳужжатларини тайёрлаш ҳамда шартнома тузилгандан кейин 3 иш кун ичида тегишли ахборот порталига жойлаштириш топширилсин.

5. Танлов комиссиясига котиби Ш.Юлдашевга ушбу танловга тегишли барча ҳужжатларни белгиланган тартибда сақланишини таъминлансин.

Комиссия раиси:

Ш.Бабаниязов

Комиссия аъзолари:

Ш.Юлдашев

У.Юсупов

К.Карлиев

Х.Аширбаев

А.Саимов